

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Byudjet izimi

fanidan kurs ishi yozish bo'yicha
o'quv-uslubiy ko'rsatma

5232000– Davlat budjetining g'azna ijrosi
bakalavriat ta'limi yo'nalishi talabalari uchun

TOSHKENT - 2019

Bakalavriatning 5232000 – “Davlat budgetining g’azna ijrosi” ta’lim yo’nalishi talabalari uchun “Byudjet tizmi” fanidan kurs ishini yozish bo’yicha uslubiy qo’llanma. Tuzuvchi –Tashmuxeimedova D. - Toshkent, 2019.

Mazkur uslubiy ko’rsatma “Davlat budgetining g’azna ijrosi” bakalavriat yo’nalishida ta’lim oluvchi talabalar tomonidan “Byudjet tizmi” fanidan kurs ishini tayyorlash va himoya qilish jarayonida uslubiy jihatdan yordam beradi.

Davlat ta’lim standartlarida bakalavriat bosqichi talabalari “Byudjet tizimi” fani bo’yicha talab etilgan bilimlarga ega bo’lish va kasbiy vazifani bajarishni nazariy o’rganish maqsadida uchun kurs ishi yozishi belgilangan. Uslubiy ko’rsatmada kurs ishi mavzularini tanlash, adabiyotlar bilan tanishish, kurs ishini yozish, ularni rasmiylashtirish, himoya qilish jarayonlari batafsil bayon etilgan.

Uslubiy qo’llanma Toshkent moliya instituti o’quv uslubiy Kengash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. «__»_____2019 yil -son majlis bayoni.

I. Umumiy uslubiy ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda PF-4947-sonli O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq 2017-2021 yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Jumladan, xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlabqolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish hamda sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish,byudjet xarajatlari samaradorligini oshirish ham alohida ustuvor yo'nalishlar sifatida qayd etilgan. Jamiyat iqtisodiyotidagi iqtisodiy samaradorlikni rag'batlantirish, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, noishlab chiqarish xarajatlarini imkoniyat darajasida iqtisod qilinishi hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

Toshkent Moliya instituti "Davlat budjetining g'azna ijrosi" ta'lim yo'nalishidagi bakalavriat bosqichi 4-kurs talabalari davlat ta'lim standartlari talablari asosida "Byudjet tizimi" fanidan kurs ishi tayyorlashlari va himoya qilishlari ko'zda tutilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida "Davlat budjetining g'azna ijrosi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha kurs ishi yozish bitiruv malakaviy ish bajarishdan oldingi muhim bir tayyorlanish bosqichlaridan biridir.

Kurs ishi yozishdan maqsad quyidagilardan iborat:

- talabalarning byudjet tizimini o'rganishi uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy va o'quv adabiyotlarni izlab topishi, o'rganib chiqish hamda ularni jamlab xulosa qilish;
- mustaqil ta'lim olish faoliyatini faollashtirish;
- amaliy materiallarni iqtisodiy tahlil qilish va ularga ilmiy xulosa berish borasidagi malakasini oshirish;
- faktlar asosida to'g'ri xulosa chiqarishni o'rganish;

– dolzarb mavzularga taalluqli yangiliklar, adabiyotlar va manbalardan foydalanish;

– bitiruv malakaviy ishlarini yozishga tayyorlash.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishida talabalar fanlar bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalarini, mavzular doirasida ularda shakllangan mustaqil fikr mulohazalarini bildirish hamda tanlagan mavzusi bo'yicha nazariy jihatdan asoslangan xulosani bayon etishi maqsadida kurs ishlarini yozishi va muvaffaqiyatli himoya qilishlari belgilangan. Jumladan, Davlat Ta'lim Standartlarida 2 kurs "Davlat budjetining g'azna ijrosi" ta'limi yo'nalishi talabalari tomonidan kurs ishlari tayyorlanishi va maxsus tashkil etilgan komissiya a'zolari oldida himoya etishlari e'tirof etilgan.

Talabalar tomonidan kurs ishlarini yozish va muvaffaqiyatli himoya qilish bu o'tilgan fanlardan egallagan bilim darajalarini namoyon etish shakllaridan biri hisoblanib, kurs ishini yozish davomida talabalar o'zlari egallagan nazariy va amaliy bilimlarini oshirish, tanlagan sohasi bo'yicha amaliyotda erishilayotgan tajribalar bilan tanishish, shuningdek bitiruv malakaviy ishlarini yozishga tayyorgarlik ko'rish uchun dastur amal bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Talaba tomonidan kurs ishini yozish va maxsus belgilangan komissiya a'zolari oldida himoya qilish jarayoni quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

Birinchi bosqich. Kafedra tomonidan tasdiqlangan va talabalar e'tiboriga havola etilgan mavzular ro'yxatdan talaba mustaqil ravishda o'zini qiziqtirgan va kelgusida mazkur mavzu doirasida bitiruv malakaviy ishini yozishni ko'zlaganholda mavzuni tanlaydi.

Ikkinchi bosqich. Mavzu bo'yicha o'quv va ilmiy adabiyotlar, davriy matbuot ma'lumotlari va me'yoriy huquqiy xujjatlar bilan yaqindan tanishadi hamda mavzu doirasida ma'lumotlar bazasini shakllantiradi.

Uchinchi bosqich. Shakllantirilgan ma'lumotlar bazasidan kelib chiqib, kurs ishi mavzusining rejasini tuzadi hamda ilmiy rahbari bilan muhokama etadi. Muhokama natijasini yakunida reja ilmiy rahbar tomonidan tasdiqlanadi.

To'rtinchi bosqich. Tasdiqlangan rejaga muvofiq mavjud ma'lumotlar

tizimlashtiriladi.

Beshinchi bosqich. Kurs ishi mavzusi bo'yicha taqdim etiladigan statistik ma'lumotlar tizimlashtiriladi hamda chizma, jadval yoki diagramma tarzida tahlil etilishga tayyorlanadi.

Oltinchi bosqich. Kurs ishi talaba tomonidan qo'lyozma tarzida yoziladi.

Ettinchi bosqich. Talaba tomonidan qo'lyozma tarzida yozilgan kurs ishi dastlabki tekshiruv uchun ilmiy rahbar e'tiboriga havola etiladi hamda ilmiy rahbar kurs ishida talaba tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni e'tirof etib, mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun kurs ishini talabaga qaytariladi.

Sakkizinchi bosqich. Kafedra tomonidan belgilangan talablar doirasida kurs ishi talaba tomonidan rasmiylashtiriladi hamda taqriz olish uchun ilmiy rahbarga taqdim etiladi.

To'qqizinchi bosqich. Ilmiy rahbar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklar talaba tomonidan bartaraf etiladi hamda kafedra tomonidan tashkil etilgan maxsus komissiya a'zolari oldida himoya qilinadi.

Mavzu tanlash

Kurs ishi yozishdagi asosiy masalalardan biri, talabalar tomonidan uning mavzusini to'g'ri tanlashdir. "Byudjet tizimi" fanidan e'ziladigan kurs ishi mavzusi ham talabalar tomonidan mavzular ro'yxatidan tanlanadi (1-ilovaga qarang).

Talabalarning tanlagan mavzulari bir xil bo'lib qolmasligi lozim. Ular uchun mavzu tanlash imkoniyati keng bo'lishi uchun, tayyorlangan mavzular ro'yxati kurs ishi yozishi ko'zda tutilgan talabalar soniga nisbatan ikki barobar ko'p bo'lishi tavsiya etiladi.

Kurs ishi mavzulari ro'yxati har yili kafedra tomonidan yangi va dolzarb muammolarni yoritishga asos bo'ladigan mavzular bilan yangilanib turilishi va o'quv yilining 1 oktyabriga qadar tanishish uchun talabalarga berilishi kerak.

Talabalar mavzu tanlashda o'qituvchilar bilan maslahatlashishlari mumkin. U ro'yxatdagi mavzulardan xohlaganini tanlash huquqiga ega. Bundan tashqari,

talaba kurs ishi mavzulari ro'yxatida bo'lmagan, lekin Byudjet tizimi tizimi muammolarini ochishda muhim ahamiyat kasb etgan mavzularni taklif qilishi mumkin.

Har bir talaba bitta mavzu tanlash huquqiga ega. Mavzu tanlangandan so'ng, kurs ishi e'zish masalasida albatta ilmiy rahbar bilan maslahatlashib olish kerak.

Adabiyotlar bilan tanishish

Kurs ishini bajarishda talabaning darslik, o'quv qo'llanma, ilmiy-amaliy jurnallar, ommaviy gazetalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va internet saytlari bilan tanishishi tavsiya qilinadi. Bunda Prezidentimizning mavzuga oid asarlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Hukumat qarorlarini va boshqa me'yoriy hujjatlarni alohida o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ma'lumotlar bilan "NORMA" va "PRAVO" kabi maxsus saytlardan foydalangan holda tanishish mumkin. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'mintiga oid qonunlari va maxsus me'yoriy hujjatlar to'plamidan ham foydalanish mumkin. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Toshkent Moliya instituti axborot-resurs markazi, Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti va boshqa kutubxonalarda hamda internet saytlarida boshqa ko'pgina ilmiy, nazariy va amaliy adabiyotlar bilan tanishish mumkin.

Talaba o'zi tanlagan mavzuga mos adabiyotlar bilan tanishib chiqqandan so'ng, uni o'rganishni boshlashi kerak. Buning uchun mavzuga oid adabiyotlarni yig'ib bo'lib, ulardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Kurs ishi yozishda adabiyotlardan foydalanish ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich – kurs ishi mavzusini tanlashda va rejasini tuzishda adabiyotlardan foydalanish bo'lsa, ikkinchisi - kurs ishini yozish davomida adabiyotlardan foydalanishdir. Umuman olganda, adabiyotlardan foydalanishning ikkala bosqichi ham bir-biri bilan o'zaro bog'lanib ketadi.

Kurs ishi mavzusini tanlash va rejasini tuzishda adabiyotlardan foydalanish juda katta ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzuni qanchalik dolzarbligi, muammoli ekanligini talaba, albatta, kerakli kitob, jurnal, internet saytlari va

boshqa manbalar orqali bilishi kerak bo'ladi. Shuningdek, ushbu mavzu bo'yicha reja tuzishda, uning ahamiyatliliigi, huquqiy asoslari etarliliigi, dolzarbliigi, muammoliligi va ularni bartaraf etish mumkinligini ilmiy, nazariy va amaliy adabiyotlardan foydalangan holda o'rganib chiqadi.

Kurs ishini yozishchda mavzuga oid adabiyotlarni chuqurroq o'rganishga va ularni tahlil qilish hamda ulardagi mavzuga oid fikrlarni solishtirish jarayonida, ma'lum fikrlarni qo'llashni va ba'zilarini inkor qilishni hamda mavzuga oid muammolarni bartaraf etishda qaysi adabiyotda keltirilgan fikrlar maqsadga muvofiqligini aniq ta'kidlab o'tish kerak bo'ladi. Adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni kurs ishida aniq va ravon keltirish lozim. Shuningdek, talaba kurs ishi materiallarini tahlil qilishda e'lon qilingan statistik ma'lumotlardan keng foydalanishi kerak. Talaba O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ma'lumotlarni statistik to'plam va internetning tegishli saytlaridan olib, foydalanishi mumkin. Kurs ishi materiallarini tahlil qilish va uni mazmunli bo'lishida statistik ma'lumotlar katta ahamiyatga ega. "Byudjet tizimi" fanidan foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlarning taxminiy ro'yxatini 2-ilovada ko'rishingiz mumkin.

Kurs ishini yozish tartibi

Kurs ishining umumiy hajmi qo'l yozmada 40 varaqdan kam bo'lmasligi kerak. Ilovalar ko'rsatilgan hajmga kirmaydi. Titul varag'i belgilangan shakl bo'yicha rasmiylashtiriladi (3-ilovaga qarang).

Ishda me'yoriy hujjatlar va orfografik qoidalar bo'yicha qabul qilingan shartli qisqartirishlar kiritishga ruxsat beriladi. Masalan: y.– yil, yy.– yillar, m.s.– ming so'm, mln. s. – million so'm, mak.– maksimal va boshqalar. Lekin "Byudjet tizimi" fanidan yozilgan kurs ishida moliyaviy, iqtisodiy terminlarda kamdan-kam qisqartma so'zlar ishlatiladi. Ushbu holatni inobatga olib, kurs ishida qisqartma so'zlarni kamroq ishlatish tavsiya etiladi.

Kurs ishida ba'zi so'z birikmalari qayta-qayta kelishi ko'zda tutilsa, ushbu so'z birikmalarini birinchi yozilishida to'liq yozib, so'z birikmasi tugashi bilan qavs ochib, ushbu so'z birikmasini qisqartma ko'rinishini keltirish kerak. So'ng,

ushbu soʻz birikmasi qaytarilsa, qisqartma koʻrinishini yozish mumkin. Masalan, ochiq aktsiyadorlik jamiyati (OAJ), maʼsuliya cheklangan jamiyat (MChJ), qoʻshma korxonalar (QK) va boshqalar.

Mundarija kurs ishi tuzilishini belgilab beruvchi qism boʻlib, kurs ishini boshlanish qismida keltiriladi va unda kurs ishi tarkibida boʻlishi lozim boʻlgan qismlar, yaʼni kirish, asosiy qism savollari, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati, xulosa va ilovalar koʻrsatiladi.

Masalan, talaba “Davlat byudjeti ijrosining zamonaviy modellari” mavzusida kurs ishi tanladi.

Talaba mavzu boʻyicha reja tuzish uchun avvalo unga mos adabiyotlarni oʻrganishi kerak. Misol uchun, ushbu mavzu boʻyicha quyidagicha reja tuzilishi mumkin (4-ilovaga qarang).

Tuzilgan reja boʻyicha kurs ishini yozish tartibi tushuntirib beriladi. Kirish qismi – kurs ishining boshlangʻich qismi boʻlib, ishning asosiy maʼnosini bayon qiladi. Unda kurs ishi mavzusining dolzarbligi asoslanadi, izlanishning maqsadi va vazifalari, izlanish obʼekti, predmeti hamda mavzuning ahamiyati va mohiyatiga toʻxtaladi. Shu bilan birga, kurs ishi yozish uchun asos boʻlgan amaliy maʼlumotlar manbalari aks ettiriladi.

Mavzuning dolzarbligini yoritish barcha ilmiy ishlarda majburiy talabdir. Muallif mavzuni tanlagan ekan, uning ilmiy salohiyati va kasbiy tayyorgarligi, albatta, bu mavzuni maʼnosini tushunib etishi va uni zamon talabiga mosligi hamda ijtimoiy muhimligini baholay olishi kerak. Dolzarblikni yoritishda asossiz gaplar yozilmasligi kerak. Mavzuning dolzarbligining asosiy omillarini toʻliq bir sahifada koʻrsatish etarli boʻladi.

Mavzuning dolzarbligini asoslashda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan, maʼruzalaridan va etuk iqtisodchi olimlar asarlaridan mavzuga tegishli boʻlgan fikrlarni keltirish zarur.

Mavzuning dolzarbligi ochib berilgandan soʻng, tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, ushbu maqsadga erishish uchun aniq vazifalarni (3-5 ta vazifalarni) hal qilib olish kerak boʻladi.

Bular odatda quyidacha ifodalanadi:

- o'rganish;
- ochish;
- tasvirlash;
- belgilash;
- aniqlash;
- uslubiy ishlab chiqish;
- tayyorlash.

Bu vazifalarni chuqur tahlil qilib, yozish kerak.

Yuqorida keltirib o'tilgan mavzudan kelib chiqib, tadqiqot ob'ektini aniqlanadi. Bunda tadqiqot ob'ekt - O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti g'azna ijrosi funksiyasining asosi bo'lgan byudjet tizimi faoliyatidir. Tadqiqot predmeti esa byudjet tizimini amalga oshiruvchi organlarning davlat moliyaviy resurslarini boshqarishni tashkil etishda shakllanadigan munosabatlaridir. Shuningdek, tadqiqotning uslubiy ko'rsatmasi kirish qismidagi muhim elementlardan biri bo'lib, amaliy materiallarni tahlil qilishda va ishning asosiy maqsadini ochib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy olimlarning ushbu mavzu bo'yicha olib borgan ishlarini ko'rsatish kerak. Kirish qismini ko'pi bilan 2-3 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

Kirish qismdan so'ng, asosiy qism keladi, ya'ni u bir nechta savollardan iborat bo'lib, bunda asosan ushbu mavzuni asosiy mohiyati to'liq va batafsil ochib beriladi.

Asosiy qismda ishning hamma savollari ochib beriladi. Avvalo, tanlangan mavzuning iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati, ahamiyati, Byudjet tizimining zarurligi, uning ijtimoiy ta'minot tizimidagi o'rni, shakllari, turlari, tahliliy o'rganiladi. Bunda mavzu bo'yicha mavjud muammolar aniqlanadi va ushbu muammolarni bartarf etish yo'llari izlab topiladi.

Kurs ishining har bir bo'limi unga mos asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi. Kurs ishida, ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma'ruzalar va maqolalari, hisob-grafika ishlari va loyihalari,

albatta, nomlari ko'rsatilgan holda) ishlari aks ettirilishi yoki ulardan foydalanish mumkin.

Birinchi savolda mavzuning nazariy jihatlarini mazmuni, mohiyati, ahamiyati yoritiladi. Ya'ni turli iqtisodiy maktablar vakillari bo'lgan iqtisodchi olimlar asarlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilishi, davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalardan foydalanilishi, mavzuga oid asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalarida keltirilgan nazariy fikrlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, Byudjet tizimi tizimining mohiyati, mazmuni, zarurligi yoritiladi. Bunda mavzuning huquqiy asoslarini ham ochib berish mumkin. Byudjet tizimi faoliyatini amalga oshirishni tartibga soluvchi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining qonun osti hujjatlari, qarorlari, xalqaro amaliyotda qo'llanuvchi umumiy me'yorlar o'rganiladi. Ushbu savolga javobni ko'pi bilan 8-10 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

Ikkinchi savolda mavzuga oid amaliyot holati tahlilini amalga oshirish va tahlil natijalariga asoslangan holda tegishli xulosalarni shakllantirishdan iboratdir. Bunda jadvallar, diagrammalar, rasmlar shaklida amaliyot ma'lumotlaridan keng foydalanish, ularni batafsil tahlil etish talab etiladi. Tahlil jarayonida davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalarga, hukumat idoralariining rasmiy internet saytlarida keltirilgan ma'lumotlarga, malakaviy amaliyot davomida to'plangan amaliyot ma'lumotlariga asoslanish tavsiya etiladi. Har bir jadval, diagramma va rasmlarning manbalari aniq ko'rsatilishi talab etiladi. Xususan, byudjet g'azna ijrosi tizimi organlari faoliyatining amaliyoti, byudjet tizimi byudjetlari ijrosining dinamikasi, amaldagi holati, yuridik va moliyaviy majburiyatlarni shakllantirish va byudjet tashkilotlariga mablag'larni to'lash orqali nazoratni amalga oshirish tartibi, byudjet tizimida dastlabki va joriy nazoratning amaldagi holatini xarakterlovchi iqtisodiy ma'lumotlar dinamikasini o'rganishda kamida 3-4 yillik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Ushbu savolga javobni ko'pi bilan 10-12 varaq xajmda yozish tavsiya etiladi.

Uchinchi savolda mavzuga oid muammolar yuzasidan zamonaviy asarlarda tadqiq etilayotgan mavzuni takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, ularga nisbatan talabning mustaqil fikrlarini bildirish va ilg'or xorijiy tajribalarni bayon etish va ularni mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlari bo'yicha takliflar kiritish talab etiladi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimidagi, Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'limlari faorliyatini tashkil etilishidagi mavjud muammolar atroflicha bayon qilinadi. Talaba muammolarni aniqlash bilan bir vaqtda ularni bartaraf etish borasida shaxsiy takliflarini keltiradi. Ushbu savolga javobni ko'pi bilan 9-10 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

Xulosa qismida mavzuni o'rganish davomida talaba tomonidan amalga oshirilgan tahlil jarayonida shakllantirilgan xulosalar aks ettiriladi. Mavzuga oid zamonaviy asarlarda bayon etilgan tadqiq etilayotgan mavzuni takomillashtirish yuzasidan takliflar keltirib, shunga asosan talaba o'z fikrini bayon etadi. Xulosa qismini ko'pi bilan 2-3 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar qismida darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, jurnal, tezislar to'plami, huquqiy-me'yoriy hujjatlar va internet saytlarining asosiy ma'lumot ko'rsatkichlari (chop qilingan joyi va yili, nashriyot va boshqalar) ro'yxati keltiriladi. Barcha ilmiy ishlarda, shuningdek, kurs ishida ham foydalanilgan ma'lumotlar manbai va adabiyotlar ro'yxatini keltirish majburiy shartlardan biridir (2-ilovaga qarang). Foydalanilgan adabiyotlar qismini ko'pi bilan 2-3 varaq hajmda keltirish tavsiya etiladi.

Kurs ishini rasmiylashtirishning umumiy talablari

Kurs ishi berilgan topshiriq asosida, shaxsan talaba tomonidan bajariladi. Talaba tanlangan qarorning to'g'riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, kurs ishida ko'chirmachilik holatining yo'qligiga javob beradi.

Kurs ishi ta'lim standartlarida talab etilganidek, tartibli rasmiylashtirilgan va xatosiz, aniq va tushunarli tilda yozilgan bo'lishi kerak. Kurs ishi yozishda tuzilgan matnda "men" so'zi o'rniga "biz" so'zini yozish tavsiya etiladi.

Kurs ishi qo'lyozma tarzida rasmiylashtirilgan bo'lishi shart. Kurs ishi A4 o'lchamdagi oq qog'ozda, ko'k rangli ruchkada yozilishi tavsiya qilinadi, boshqa rang ruchkalarni ishlatishga yo'l qo'yilmaydi. Bo'limlar, jadvallar, rasmlar raqamini va nomlarini ham boshqa rangli ruchkada yozishga yo'l qo'yilmaydi. Ishda keltiriluvchi jadvallar, diagrammalar, rasmlar kompyuterda tayyorlanib, printerda chop etilgan (kog'oz A4 (210*297mm) shaklda) holda kiritilishi mumkin. Kurs ishini faqat ayrim hollarda kompyuterda tayyorlanishiga ruxsat beriladi. Kurs ishida tuzatishlarga ruxsat berilmaydi.

Kafedraning tavsiyasiga binoan kurs ishi chet (ingliz, nemis yoki frantsuz) tilida bajarilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima ta'minlanadi.

Kurs ishini yozishda varaqning chap tarafida 3 sm, pastda 2 sm, tepada 2 sm, o'ngda 1 sm joy qoldirish tavsiya qilinadi, (5-ilovaga qarang) bunda bir varaqda 28-30 qator ezuv bo'lishi zarur. Varaq tagiga yo'l-yo'l qog'oz ("zebra") qo'yib yoziladi, varaqning o'ziga matn yozish uchun to'g'ri chiziqlar chizish yoki printerda chiziqlar chop etilgan varaqlarga yozishga yo'l qo'yilmaydi. Kurs ishining barcha betlari titul betidan oxirgi betigacha tartib bilan raqamlanadi. Birinchi bet titul varag'i hisoblanib, unga raqam qo'yilmaydi, keyingi betga "2" raqami qo'yiladi va hokazo. Tartib raqami betning pastki tomonining o'rtasiga qo'yiladi.

Qismlarning nomlanishi bosh harf bilan yoziladi. Qism ichidagi nomlanishlar xatboshidan kichik harflar bilan yoziladi. Asosiy qism ichidagi savollarni sarlavhalarini yozishda bo'g'in ko'chirishga ruxsat berilmaydi. Sarlavha oxirida nuqta qo'yilmaydi. Sarlavhaning tagiga chizib yozishga ruxsat etilmaydi. Har bir sarlavhadan oldin arab raqami bilan raqamlar qo'yiladi va raqamdan so'ng nuqta qo'yiladi. Agarda savol ichida savollar keltirilsa, masalan, birinchi savol ichida bitta savol "1.1.", ikkita savol bo'lsa "1.2." shaklda yoziladi.

Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar boshlanishida raqam qo'yilmaydi. Kurs ishining har bir qismi yangi betdan boshlanadi. Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va asosiy qism savollari bir xilda, varaqning yuqori qismining o'rtasiga yozish tavsiya etiladi.

Illyustrasiya (surat)lar ko'rish uchun qulay tarzda joylashtirilishi kerak. Agar kurs ishini burish lozim bo'lsa, uni soat strelkasi bo'ylab burish kerak (6-ilovaga qarang). Barcha surat (grafik, chizma, diagramma, fotosurat)lar, "rasm" so'zi va bo'lim bo'yicha ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Ilovalarda keltirilgan suratlar bundan mustasno. Surat raqami bo'lim va surat raqamidan iborat bo'lib, nuqta bilan ajratiladi, masalan "1.2-rasm" va izoh beruvchi yozuv pastga yoziladi.

Raqamli materiallar jadval ko'rinishida rasmiylashtirilishi lozim. Jadvalni rasmiylashtirish namunasi 7-ilovada ko'rsatilgan. Har bir jadval sarlavhaga ega bo'lishi kerak. Sarlavha bosh harf bilan boshlanadi. Sarlavhani ostiga chizilmaydi.

Jadvalning sarlavhasi uning yuqorisiga, o'rtaga yozilishi tavsiya etiladi. Jadval grafalarining sarlavhalari bosh harflar bi-, sarlavhachalar esa, agar ular sarlavha bilan bitta gapni tashkil etsa, kichik harflar bilan, agar ular mustaqil bo'lsa, katta harflar bilan boshlanishi kerak.

Ko'plab grafalarga era bo'lgan jadvalni qismlarga bo'lish va bir qismni ikkinchi qismdan keyin joylashtirishga ruxsat etiladi.

Bo'limlar doirasidagi jadvallar izchil, ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan: "1-jadval", "2-javdal" va h.

Agar kurs ishida bitta jadval bo'lsa, u raqamlanmaydi va "jadval" so'zi yozilmaydi.

Jadvalning biror qismi boshqa betga o'tganda, "jadval" so'zi va uning tartib raqami bir marta jadvalning birinchi qismi ustida ko'rsatilib, qolgan qismlar ustiga "davomi" degan so'z yoziladi.

Matndagi manbalarga havola("snoska")larni satr osti eslatmalarida keltirish lozim. Havola har bir betda arab raqamida ketma-ket tartib bilan keltirilishi lozim. Keyingi betda esa yana boshidan tartib bilan ilova qo'yilishi tavsiya qilinadi.

Havolalarni keltirish tartiblari:

- hujjat va ta'rifni tasdiqlash uchun iqtibos keltirganda;
- zamonaviy adabiyotlar va birlamchi manbalar bo'yicha iqtibos keltirganda;
- adabiyotlardan va boshqa manbalardan biror muammo, xulosa yoki takliflardan iqtibos keltirganda;
- davlat arboblari, olimlar va mutaxassislar fikrlaridan iqtibos keltirganda;
- statistik ma'lumotlar va to'plamlardan iqtibos keltirganda;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlardan iqtibos keltirganda;
- bir betda iloji boricha 3 tadan ko'p iqtibos keltirish tavsiya qilinmaydi;
- va boshqa holatlarda.

Illyustratsiyalarga qilingan havolalar sarlavhaning oxirigi so'ziga qo'yiladi (7-ilovaga qarang). Matnda barcha jadvallarga havola berilishi kerak.

Har bir ilova yangi betning o'ng yuqori burchagida "Ilova" so'zi bilan boshlanadi. Agar kurs ishida bittadan ko'p ilova bo'lsa, ular ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan, "1-ilova", "2-ilova" va h.

Ilovalarni alohida rasmiylashtirganda, titul varag'ida kurs ishi mavzusining nomi ostida katta harflar bilan "ilovalar" so'zi yoziladi.

Kurs ishida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini 2-ilovaga muvofiq rasmiylashtiriladi. Kurs ishi mavzusi bo'yicha asosan so'nggi 10 yil ichida nashr qilingan adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Kurs ishini himoya qilish

Dekanat tomonidan kafedra bilan kelishilgan holda kurs ishlarini topshirish va himoya qilish reja jadvali ishlab chiqiladi va kurs ishini topshirish va himoya qilish muddatlari kafedra mudiri tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Talaba tayyor bo'lgan kurs ishini "Byudjet tizimi ishi va byudjet hisobi" kafedrasida kotibasiga topshiradi. Kotiba ushbu kurs ishini ro'yxatga olish kitobida ro'yxatdan o'tkazib, kurs ishi titul varag'iga ro'yxatdan o'tkazilgan sana va ro'yxat tartib raqamini yozadi. So'ng ilmiy rahbarga topshiradi. Ilmiy rahbar kurs ishini ro'yxatdan o'tgan sanadan boshlab bir hafta ichida ko'rib chiqib, uni talab

darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi (8-ilovaga qarang) bilan birga kafedraga taqdim etadi. Ilmiy rahbar tomonidan taqdim qilingan taqrizda talabaning faolligi, mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifasi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklari, keltirilgan malumotlarning tahlili, chiqarilgan xulosa va takliflarning asosliligi va kurs ishining boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Shu bilan birga, xato va kamchiliklari ham ko'rsatiladi. Natijada, taqriz oxirida xulosa qilinadi, ya'ni kurs ishi himoyaga qo'yilishi yoki qo'yilmasligi ko'rsatib o'tiladi.

Kurs ishida qo'pol xato-kamchiliklar bo'lmasa, himoyaga tavsiya etiladi. Talaba ko'rsatilgan xato-kamchiliklarni asoslash yoki to'g'rilash uchun kurs ishi himoyasigacha tayyorlanishi kerak. Agarda kurs ishida xato va kamchiliklar ko'p bo'lsa, ularni bartaraf etgandan so'ng, himoyaga tavsiya etilishi ko'rsatilgan bo'lsa, u holda xato va kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng, ikkinchi marta yana himoyaga tavsiya etish uchun taqriz yoziladi.

Agarda talaba kurs ishini sababsiz o'z vaqtida topshirmasa, kamchiliklar to'liq bartaraf etilmasa, u holda ilmiy rahbar kurs ishi himoyaga qo'yilmaydi deb yozma xulosa beradi.

Kotiba taqriz yozilgan kurs ishini topshirilgan kun bilan ro'yxatdan o'tkazib qo'yishi kerak. Kurs ishlarini ro'yxatga olish kitobida har bir guruhni alohida betga rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

Kurs ishini himoya qilish kuni va himoyada qatnashuvchi komissiya tarkibi kafedra majlisida belgilanadi. Kurs ishi himoyasida qatnashuvchi komissiya tarkibi 3-5 ta a'zodan iborat bo'ladi. Kurs ishi himoyasida komissiya tarkibidan kamida 3 ta azo bo'lishi talab etiladi.

Har bir talaba uchun kurs ishi himoyasi 20-25 daqiqa (10-15 daqiqagacha talaba ma'ruzasi, 5-10 daqiqagacha savol-javob) davom etadi. Talaba o'z ma'ruzasida mavzu to'g'risida qisqacha tushuncha berishi, ya'ni mavzuning dolzarbligi, muammosi, xulosa va taklif haqida to'xtalishi zarur. Shuningdek, taqrizda ko'rsatilgan kamchiliklar haqida to'xtalishi kerak.

Himoyadan so'ng, komissiya a'zolari yopiq majlis o'tkazib, talabalarning ishini baholash qarorini qabul qiladi.

Komissiya a'zolari quydagicha qarorni qabul qilishi mumkin:

- kurs ishini himoya qilganligini bildiruvchi baho qo'yilishi;
- himoyaga kiritilmagan bo'lishi;
- «himoyaga kelmadi» bo'lishi;
- himoyada qoniqarsiz baho olgan bo'lishi;
- qayta himoya qilish uchun muddat berilishi;
- boshqa mavzuda qayta ishlab, himoya qilish tavsiya qilinishi.

Uzrli sabab bilan kurs ishini belgilangan muddatda himoya qilmagan talabalarga dekanning ruxsati bilan, komissiyaning ishi yakunlanishiga qadar, boshqa muddatlarda himoya qilishga ruxsat beriladi.

KURS ISHINI BAHOLASH MEZONI

Kurs ishi himoyasi samarali adolatli va ob'ektiv tarzda bo'lib o'tishini ta'minlash maqsadida mazkur mezondan foydalaniladi

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasi
86-100	A'lo	Talaba tomonidan mustaqil xulosa va takliflar ishlab chiqilgan, ijodiy fikrlay olish, mustaqil mushohada yurita olish, olgan bilimlarini amalda qo'llay olish, mohiyatini tushunish, aytib bera olish, mustaqil tasavvurga ega bo'lish. Kurs ishi himoyasi komissiyasi a'zolari savollariga 80-100% javob bera olish. Tadqiqot jarayonida aniqlangan muammolar bo'yicha aniq echimini taqdim etish.
71-85	Yaxshi	Talaba tomonidan olib borilgan izlanishlar asosida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan. Mustaqil mushohada yurita olish, olgan bilimlarini amalda qo'llay olish, mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish va mustaqil tasavvurga ega bo'lish. Kurs ishi himoyasi komissiyasi a'zolari savollariga 60-90% javob bera olish.
55-70	Qoniqarli	Talaba tomonidan tanlangan mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarini bayon qila olish, mohiyatini

		tushunish, bilish, aytib bera olish, tasavvurga ega bo'lish. Olib borilgan izlanishlar asosida xulosaga ega bo'lish. Kurs ishi himoyasi komissiyasi a'zolari savollariga 30-60% javob bera olish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik, tanlangan mavzuni bilmaslik, tushunmaslik. Yoki kurs ishida ko'chirmachilikka yo'l qo'yilishi. Kurs ishi himoyasi komissiyasi a'zolari savollariga 25% va undan kamiga javob berishi.

Saralash bali 55 ballni tashkil qiladi.

“Byudjet tizimi” fanidan kurs ishlari mavzulari

1. Byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlarni takomillashuvi
2. Byudjet tizimini tashkil etilishida xorij tajribalari
3. Byudjet munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar
4. Byudjet kodeksi, uning byudjet tizimini boshqarish va tartibga solishdagi ahamiyati
5. Byudjet tizimi byudjet lari daromadlarining tasnifi, ularning turlari
6. Byudjet taqchilligini qoplash manbalari tasnifi.
7. O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar byudjet tasniflari bilan qiyoslash
8. O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi, uning byudjet tizimini boshqarishdagi ahamiyati
9. Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari
10. Iqtisodiy islohotlar sharoitida byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari
11. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
12. Byudjet ga daromadlarni jalb qilishning ichki va tashqi manbalari
13. Byudjet daromadlarining shakllanishida soliqlarning ahamiyati
14. Davlat byudjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari
15. Byudjet ning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlash xarajatlari va boshqa xarajatlar
16. Iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida mahalliy byudjet lar xarajatlarining tarkibi va tuzilishi
17. Mamlakatda pensiya ta'minotini amalga oshirishda byudjet dan tashqari Pensiya jamg'armasining o'рни va ahamiyati, maqsadi va vazifalari.
18. Pensiya jamg'armasining daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini amalga oshirish mexanizmi

19. Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini samarali boshqarish yo'llari
20. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari xarajatlari
21. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari loyihasini tuzish va prognozlashtirish.
22. Vakillik va ijroiya xokimiyati organlarining byudjet jarayonidagi ishtiroki
23. Smeta xarajatlarining tarkibi, xarajat guruhlarini va moddalari, ularni hisoblash
24. Byudjet tashkilotlari xarajatlarini aniqlashda xarajatlarni me'yorlashtirish amaliyotiga o'tish masalalari
25. Byudjet tashkilotlarining shtat jadvalini tuzish va tasdiqlash
26. Byudjet jizimi byudjetlari g'azna ijrosining huquqiy asoslari
27. Byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi.
28. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish
29. Byudjetlararo munosabatlarning mohiyati va zarurligi
30. Byudjetlararo munosabatlarni samarali boshqarishga oid davlat siyosati va uning vazifalari
31. Mahalliy byudjetlar samarali ijrosini ta'minlash muammolari
32. Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish borasida jahon tajribalari.
33. Davlat moliyaviy nazoratining shakllari, turlari va usullari
34. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati.
35. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati
36. G'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati.
37. O'zbekiston Respublikasida byudjetni tuzish va ijro etishda davlat

moliyaviy nazoratini tashkil etish

38.Byudjetlararo munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar.

39.Byudjetlarning darajalari o'rtasida daromadlar va xarajatlarni o'tkazish tartibi

40.Mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlari.

Kurs ishi mavzularini shakllantirishda asosli hollarda kafedra tomonidan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasi. T.: O'zbekiston 2001.-39b.
2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'RQ-360-son. 26.12.2013.
3. "Davlat byudjeti g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori PQ-594-son, 28.02.2007.
4. "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari" O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug'igaekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami №2580
5. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli [Farmoni](#).
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalgam oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144-son Qarori 26.04.2002 y.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008.–176 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: "O'zbekiston", 2011.–440 b.
9. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: "O'zbekiston", 2015. – 302 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

11. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

12. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

13. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

14. Pulatov D.X., Nurmuxmedova B.I. “Byudjet tizimi” Darslik . – T.: Sano-standart, 2014y. – 372 b.

15. Qosimova G. Byudjet tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2013. - 476 b.

16. Burxanov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012 yil. -152 b.

17. Malikov T.S. Byudjet daromadlari va xarajatlari/ T.S. Malikov, N.X. Xaydarov. - Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. - 245 s

18. S.Mexmonov, Z.Karimova, A.Tursunov. Byudjet tizimi. Darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. - 46025b.

19. B.Nurmuxamedova. Davlat byudjeti. Darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. - 425b.

20. D.A.Tashmuxamedova. G'aznachilik asoslari. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2018. 304 b.

21. D.A.Tashmuxamedova. Byudjet g'azna ijrosi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2019. 440 b.

22. A.Tuychiyev, M.Abidov. Byudjet tasnifi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2019. 200 b.

23. Z.Srojiddinova. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. infoCOM.UZ. Toshkent-2010.

24.Z.Srojiddinova. Byudjetlararo munosabatlar. infoCOM.UZ. Toshkent-2010.

25.Steven M. Bragg. Treasury management: The Practitioner's Guide /Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey/ 2010.

26.Kolesov A.S. Byudjetniy protsess: sushchnost i sovershenstvovanie. – Finansi № 11. 2010. –s 8.

27.Акперов И.Г. и др. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2007. – 352стр.

28. Жданчиков П.А. Казначейство. Автоматизированное бизнес-технологии управления финансовыми потоками. Учебное пособие. – М.: «Высшая школа эконмики». 2010. - 363 стр.

29.Ali Hashim Bair Allan. Treaury reference model. Word Bank & IMF. March. 2010. 347 r.

30. Williams M. Government: Cash Management Its Interaction with Other Financial Policies. International Monetare Fund Fiscal Attairs Department Technical Guidance Note. 2010. -201 p

Internet saytlari:

- www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti);
- www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi Hukumat sayti);
- www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti);
- www.tfi.uz (Toshkent moliya instituti sayti);
- www.minfin.ru (Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi sayti).

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“Byudjet hisobi va g'aznachilik ishi” kafedrası

“Byudjet tizimi” fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Davlat byudjeti ijrosining zamonaviy modellari

Bajardi:

Ilmiy rahbar:

REJA:

Kirish


Asosiy qism:


1. Davlatning moliyaviy boshqaruvini amalga oshirishda byudjet tizimining zarurligi, mohiyati va ahamiyati
2. Davlat byudjeti ijrosi faoliyatining amal qilish mexanizmi
3. Byudjet tizimi faoliyatining hozirgi sharoitdagi mavjud muammolari va ularni bartaraf etish masalalari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Chap-3sm, past-2sm, yuqori-2sm, o'ng-1sm





Toshkent moliya instituti Byudjet tizimi va davlat jamg'armalari fakulteti, DBG'I-70 guruhi talabasi Abdullaev Abdullaning "Davlat byudjeti ijrosining zamonaviy modellari" mavzusida yozilgan kurs ishiga

TAQRIZ

Ushbu kurs ishi kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ularda byudjet g'azna ijrosi tizimining zarurligi va iqtisodiy mohiyati, nazariy va huquqiy asoslari, byudjet tizimi mexanizmining elementlari, byudjet tizimi byujetlarning zamonaviy modellari, byudjet tizimida moliyaviy resurslarni samarali boshqarishni tashkil etishning xususiyatlari ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, byudjet tizimi byudjetlari ijrosini ta'minlashning moliyaviy ko'rsatkichlari dinamik o'zgarishlari oxirgi davr uchun o'rganilgan. Byudjet tizimi muammolari aniqlanib, ularni hal qilish bo'yicha talaba o'z takliflarini keltirgan.

Kurs ishi 45 varaq hajmida yozilgan, unda 3 ta chizma, ma'lumotlar 3 ta jadvalda keltirilgan, ma'lumotlarning keng tahlili amalga oshirilgan va adabiyotlar ro'yxati keltirilgan, u zamonaviy darsliklarni, o'quv qo'llanmalarini, huquqiy-me'yoriy hujjatlarini, statistik hisobotlarni va internet saytlarini o'z ichiga oladi.

Kurs ishida quyidagi kamchiliklar mavjud:

- 23, 25 betlarda keltirilgan ma'lumotlar manbasi ko'rsatilmagan;
- 12-14 betlarda orfografik xatolar mavjud;
- adabiyotlar ro'yhati tartib doirasida joylashtirilmagan;
- keltirilgan jadvalda o'lchov birligi (ming so'm hisobida) ko'rsatilmagan.

Ushbu kamchiliklar kurs ishining mazmuniga ta'sir etmaydi. Kurs ishi talab darajasida yozilgan deb aytish mumkin. Talaba yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni kelgusi tadqiqot ishlarida takrorlanishiga yo'l qo'ymaydi deb o'ylayman va ushbu kurs ishini himoyaga tavsiya etish mumkin.

Ilmiy rahbar:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 19 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 464-T-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi Qonuni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash Milliy dasturi".
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi 5-sonli Qarorining 1-ilovasi "Davlat ta'lim standartlari to'g'risida"gi Nizom.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 1998 yil 31 dekabr 362-sonli Buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizom" va "Oliy o'quv yurtlarida bakalavrning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar".
5. Haydarov N. "Moliya" fanidan kurs ishi bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. - Toshkent, Iqtisod, 1995.
6. Komolov O.S., Tashmatova R.G. "Moliya" fanidan kurs ishini bajarish uslubiy qo'llanma.-T.: TMI, 2014. 43 bet.
7. Jo'raev T. Va Hakimov H."Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan kurs ishi bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma.- T.: TMI, 2005.
8. Norqulov A., Yaxshiboev G'., Xayriddinov A. «Moliya» fanidan kurs ishi yozish bo'yicha uslubiy ko'rsatma.-T.: «Iqtisod-Moliya», 2007, 32 b.
9. Karimova D. Kurs ishini yozish, rasmiylashtirish hamda himoya qilish bo'yicha uslubiy qo'llanma.-T.: «Iqtisod-Moliya», 2009, 33 b.
10. Sul'tonov Sh., Baymurodova G. "Korporativ moliya" fanidan kurs ishini bajarish uslubiy qo'llanma.-T.: «Iqtisod-Moliya», 2017, 42 b.

MUNDARIJA

KIRISH	
1. Mavzu tanlash.....	
2. Adabiyotlar bilan tanishish.....	
3. Kurs ishini yozish tartibi.....	
4. Kurs ishini rasmiylashtirishning umumiy talablari.....	
5. Kurs ishini himoya qilish.....	
Ilovalar	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	